



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING
AFZALLIKLARI**

*Nasurulazoda Maftuna Zokirjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistri*

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning afzalliklari, ularning o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'rni hamda pedagogik faoliyatga ijobiy ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy metod va texnologiyalarning tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, interaktiv metodlar, AKT, o'quvchilar faolligi.*

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining barcha bosqichlari tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu bosqichda o'quvchilarda asosiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi, ularda o'qishga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Ana shunday fazilatlarining shakllanishida innovatsion texnologiyalar katta o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi. Innovatsion texnologiyalar deganda, an'anaviy ta'lim uslublaridan farqli ravishda, yangilikka asoslangan, o'quvchilar faolligini oshirishga, ta'lim jarayonini optimallashtirishga



va individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik vosita va uslublar tushuniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) — kompyuter, planshet, interaktiv doska, virtual reallik, mobil ilovalar;

Multimedia vositalari — animatsion darslar, videoroliklar, interaktiv taqdimotlar;

Onlayn ta'lim platformalari — Google Classroom, Zoom, EduPage, Quizizz, Wordwall va boshqalar;

STEAM yondashuvi — fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi;

Loyiha asosida o'qitish — amaliyotga yo'naltirilgan, guruhlarda ishlashga asoslangan metodika.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Avvalo, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi. Rang-barang interaktiv vositalar yordamida mavzular hayotiy misollar bilan boyitiladi, bu esa o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi;

Fikr yuritish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Muammo asosida o'qitish va interfaol metodlar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Individual yondashuv imkoniyati kengayadi. Texnologiyalar yordamida har bir o'quvchining bilim darajasi va qiziqishlariga mos topshiriqlarni taqdim etish mumkin bo'ladi. Ta'lim sifati va samaradorligi ortadi. Vizual, audio va kinestetik uslublar uyg'unligida o'quvchilar bilimni tezroq va barqaror o'zlashtiradi.

O'qituvchining faoliyati yengillashadi. Dars tayyorlash, baholash, hisobot yuritish jarayonlari raqamlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. Bugungi davr axborot uzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butunjahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan keng foydalanish



o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borish kerak. Bunda o'qitishda yangi ped texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilmoq lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish nafaqat o'quvchilarning bilim sifati, balki ularning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishish ko'nikmalari va kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, har bir pedagog innovatsion texnologiyalarni o'z faoliyatiga ongli va tizimli ravishda tatbiq eta olishi lozim.

REFERENCES

1. Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 20 sentyabr, 2021 yil
2. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2008 yil, 275-bet.
3. Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlardan foydalanish va o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganish. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi. www.in-academy.uz
4. Byrnes H. The Role of Listening Comprehension: A Theoretical Base. Foreign Language Annals. 1984. - 82 p.
5. Bainbridge W.S. (2007). The scientific research potential of virtual worlds. Science, 317.